



## BOSHLANG'ICH MAKtablarda integratsiyalashgan ta'lidan foydalanish

*Shahrисабз davlat pedagogika instituti*

*Boshlang'ich ta'lim yo'naliши 4-bosqich talabasi*

*Abrayeva Dilnavoz Baxtiyor qizi*

*E-mail:dilnavozabrayeva7@gmail.com*

*Boshlangich talim nazariyasi kafedrasi*

*Assistant o'qituvchisi*

*Umarova Dilafruz Anvarovna*

*E-mail:umarovadilaftuz@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich maktablarda integratsiyalashgan ta'lidan foydalanish, uning samaradorligini oshirishda har xil metodlardan keltirib o'tilgan. O'quvchilarining integratsiyalashgan darslar orqali bilim olishi, xotirasida yaxshi mustahkamlanishi, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishi, va fikrlash qobiliyatini kengaytirish haqida aytib o'tilgan. Bundan tashqari, fanlar va mavzular orqali bog'lashda yutuq va kamchiliklar ham asos qilib olingan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim dars, integratsiya atrof olam, pedagogik,

**Abstract:** This article discusses the methods of providing integrated education in working schools, including the use of various methods. In addition, the advantages and disadvantages of connecting subjects and topics are also taken as a basis.

**Keywords:** education, lesson, integration, environment, pedagogy,

**Аннотация:** В статье рассматриваются различные методы, используемые для обеспечения внедрения интегрированного образования в действующих школах. Кроме того, в качестве основы для связей между дисциплинами и темами также принимаются достижения и потери.

**Ключевые слова:** образование, урок, интегрированная среда, педагогический,



## Kirish

Zamonaviy ta'lif tizimi har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy faol shaxslarni shakllantirishga qaratilgan. Shu bois, o'quv jarayonida integratsiyalashgan yondashuvdan foydalanish zarurati ortmoqda. Integratsiyalashgan ta'lif — bu fanlararo bog'liqlikni ta'minlagan holda, bilimlarni yaxlit tarzda o'zlashtirishga xizmat qiladigan pedagogik yondashuvdir.

### Asosiy qisim

Integratsiya lotincha "integratio" — tiklash, yaxlitlash degan ma'noni anglatadi. Pedagogikada esa u turli fanlar mazmunini o'zaro uyg'unlashtirib, yagona maqsad sari yo'naltirishdir. Bu yondashuv V.V. Davydov, L.S. Vygotskiy kabi olimlar ilmiy izlanishlarida asoslab berilgan. Xususan, Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasasi" nazariyasiga ko'ra, o'quvchi bilimni faoliyat orqali egallaydi va bu faoliyat turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlikda samaraliroq kechadi. Integratsiya bir o'quv predmetida chegaradosh fanlarni, yirik g'oyalar, omillar, xulosalarni cheklab birlashtirishdir. Masalan, tarix kursining integrativligi arxeologiya, etnografiya, san'atshunoslikka tegishli dalil va nazariy xulosalarni o'z ichiga oladi. Har bir o'quv predmetini o'rganish bolaning mavzuni anglash jarayonini, uni eslab qolishni, ta'sirchanlikni faollashtiruvchi, tafakkurni, nutq va tasavvurni rivojlantiruvchi ruhiy diqqatni yaratishga imkon beradi. Ayniqsa, bilish jarayonida bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan tafakkurning turlarini rivojlantirish juda muhimdir. Chunki, bola shaxsini har tomonlama madaniy rivojlantirish, insoniyat yaratgan barcha madaniy boyliklarni bilish "O'z xotirangni boyitsanggina madaniyatli bo'lsan" degan fikrga asoslangan. Ayniqsa, tasavvurni uyg'otuvchi, ruhiy kechinmalarini faollashtiruvchi, shu bilan birga fikrlarni uyg'otuvchi asarlar juda tarbiyaviydir. Sharqa allomalarining barcha asarlari buning yaqqol misolidir. Masalan, Al-Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy G'azoliy va boshqa mutafakkirlar asarlarining barchasi tarbiyaviy va ta'lifiy uslubga xos bo'lib o'qituvchi o'qiganda o'rnak oladigan asarlari bor. Bular: Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Berunining "bolani bilish va ruhiy rivojlanishning yangi pog'onasiga ko'taradi. Shu asosida shakl mantiqiy tafakkur, turli voqealari-hodisalar o'rtasida aloqalar va bog'liqliklarni ko'ra bilish, o'rganib olish ko'nikmalari mustahkamlanadi va



rivojlanadi. O'quvchi qarama - qarshiliklarni topa bilish, ularning rivojlanish yo'nalishlarini to'g'ri tushunish va ularni o'z vaqtida yechish yo'llarini topishni o'rganadi.Umumiy o'rta ta'lim mazmunining umumiy va o'ziga xos prinsiplari shulardan iborat.

Integratsiya-o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashga yangicha yondashuvni belgilab beradi. Shu jihatdan o'quv jarayonida integratsiyalangan ta'limdan foydalanishga katta ahamiyat berilyapti. Integratsiyalangan darslarning tuzilishi o'rganishning barcha bosqichlarida o'rganilayotgan mavzularning aniqligini va izchilligini, puxta o'rganilganligini va o'zaro mantiqiy aloqalarini talab qiladi. Bunga dasturdagi o'quv materialining ixcham va yig'iq ekanligi, undan tashqari, o'quv materialini o'rganishni tashkil etishning ba'zi zamonaviy usullarini kiritish orqali erishish mumkin. Masalan :1-va 2-sinfdag'i "Atrof-olam bilan tanishish" kursining barcha mavzulari bir-biri bilan chambarchas bog'liqlik. 3-va 4-sinfdag'i "Tabiatshunoslik" darslari "Atrof-olam bilan tanishish" kursini davom ettiradi. Uning dasturiga tabiat va insonlar mehnatidagi mavsumiy o'zgarishlarni kuzatish kiritilgan. O'quvchilar tomonidan atrof-olamni o'rganish o'qish, nutq o' stirish, matematika, mehnat ta'limi darslarida davom etadi. Shunday ekan, "Atrof-olam bilan tanishish" kursi predmetlararo aloqalar o'qituvchiga barcha o'qitilayotgan darslarda Atrof-olam haqidagi tushunchalarni shakllantirish bo'yicha ish olib borishga imkon beradi. Boshlang'ich maktabdagi har bir predmet bu integratsiyalangan Kurs, mazmun jihatdan ular tabiiy-matematik sikl fanlari bilan uzviy bog'liq, bu kichik maktab o'quvchilari uchun tushunarli bo'lgan atrof-muhit haqidagi bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlaydi. Bu yoshdagi bolalarda tabiatni o'rganish faqat emotsional joziba emas, bilim olish motivlari bilan bog'liq. O'quvchilarning bu xususiyatini hisobga olib, qiziqishlarini quvvatlash uchun bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini yangi mazmuni bilan to'ldirib turish kerak. Bu o'quvchilarga hayotdag'i o'zaro aloqalarni ochib berishga hamda tabiatdag'i turli - tumanliksiz inson yashay olmasligini tushunib yetishga yordam beradi.



Boshlang'ich maktab — o'quvchining tafakkurini shakllantirishda asosiy bosqich hisoblanadi. Shu sababli bu davrda bilimlar taqsimlanmasdan, balki uzviy tarzda, ya'ni integratsiyalashgan holda berilishi dolzarbdir. Bu:

- Bilimlarning yaxlit tasvirini yaratadi;
- O'quvchilarda muammoli vaziyatlarga tahliliy yondashuvni shakllantiradi;
- Fanga qiziqishni oshiradi;
- Fanlararo bog'liqlikni mustahkamlaydi. Buni amaliyotda qo'llash misollari quydagilar.

Misol uchun, "Tabiatni asraylik" mavzusida integratsiyalashgan dars quyidagi fanlar ishtirokida o'tiladi:

- Ona tili: "tabiat haqida matn tahlili";
- Tabiatshunoslik: "ekotizim va inson faoliyati";
- Tasviriy san'at: "tabiat manzarasi tasviri";
- Texnologiya: "qog'ozdan daraxt maketi yasash".

Bu kabi darslar bolalarni faqat ma'lumot bilan emas, balki hissiy, estetik, ijtimoiy jihatdan ham boyitadi. Bu kabi masalalarni bir so'z bilan mavzulararo integratsiya deyish maqsadga muvofiq.

Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan darsni tashkil qilishda o'qituvchining roli va metodik yondashuvlari asosiy o'rinni tutadi. Misol qiladigan bo'lsak,

O'qituvchi integratsiyalashgan ta'lilda ijodkorlik bilan yondashishi lozim. Darslar ssenariysi ilgari tayyorlanadi, didaktik materiallar tanlanadi. CLIL (Content and Language Integrated Learning), STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Math) kabi zamonaviy metodlar aynan integratsiyalashgan yondashuvni amalda qo'llash axborot texnologiya vositalaridan yaxshi foydalanishi o'quvchilar bilan erkin muloqot olib borish imkonini beradi. Ta'lim jarayonini shakllantirishda ijobiy natija bo'lishi bilan birga salbiy tomonlari va qiyinchiliklari tug'ilishi mumkin. Integratsiyalashgan ta'larning qiyinchiliklari va yechimlari quyidagilardan iborat.

Integratsiyani amaliyotga joriy etishda quyidagi muammolar uchrashi mumkin:

- Fanlararo bog'liqlikni noto'g'ri yo'naltirish;



- O'qituvchilarning metodik savodxonligi yetarli emasligi;
- O'quv dasturlarining moslashtirilmaganligidir.

Yechim sifatida quyidagilar: o'qituvchilar malakasini oshirish, dars ishlanmalari bazasini yaratish, amaliy seminarlar tashkil etish muhim.

### Xulosa

Integratsiyalashgan ta'lismoshlang'ich ta'limga o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, ularni hayotga tayyorlashda muhim o'rinni tutadi. Bu yondashuv o'quvchilarning tafakkuri, dunyoqarashi va ijtimoiy faolligini rivojlantirishda keng imkoniyat yaratadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vygotsky, L.S. (1978). Mind in Society. Harvard University Press.
2. Davydov, V.V. (1996). Teoriya razvivayushchego obucheniya. Moskva.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "Ilm-fan va ta'lismosh integratsiyasini kuchaytirish to'g'risida"gi PQ-4310-son qarori.
4. "Ta'lismosh to'g'risida"gi Qonun, 2020-yil 23-sentabr.
5. STEAM-ta'lismosh bo'yicha UNESCO tavsiyalari (2021)
6. Anvarovna, Umarova Dilafruz. "INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIMDA O'YIN TEXNOLOGIYALARI." MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEUmarova,
7. Dilafruz Anvarovna. "IMPROVING THE METHODOLOGY OF SOCIO-EMOTIONAL DEVELOPMENT OF STUDENTS IN THE PROCESS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION IN PRIMARY GRADES." Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal 5.03 (2024): 394-403. SOLUTIONS 1.2 (2024): 23-25.
8. Anvarovna, Umarova Dilafruz. "BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IJTIMOIY USTANOVKALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI." TADQIQOTLAR 31.4 (2024): 3-6.
9. Umarova, Dilafruz Anvarovna. "BOSHLANG 'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIK TA'LIM JARAYONIDA O 'QUVCHILARNI IJTIMOIY-HISSIY



RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH." GOLDEN  
BRAIN 1.30 (2023): 46-49.